



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2022- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-sentabr oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oyida Viloyat korxonalari tomonidan 5329,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 87,6 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 48,6 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	210,0	196,5	-13,5
Neft, ming t.	-	63,7	63,7



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	18,7	16,9	-1,8
Chaqiq tosh, ming t.	61,6	47,9	-13,7

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4670,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,6 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar-sentabr

89,7 %

2022- yil yanvar-sentabr


87,6 %





O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,8 % (21,5 %) va quyi texnologiyalisi – 65,0 % (66,8 %)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,9 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 51,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,4 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,6 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,0 % (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 11,3 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 75,5 % ga kamaygan), 13,5 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (65,4 % ga kamaygan), 1,5 ming tonna lint (24,2 % ga kamaygan), 47,6 ming tonna neft bitumi (100,9 % ga ko'paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	14,9	11,3	-3,6
Paxta tiviti (lint), ming t.	6,1	1,5	-4,6
Neft bitumi, ming t.	47,1	47,6	0,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	87,2	81,2	-6,0
Sariyog', t.	1,4	1,0	-0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,2	2,3	0,1

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,3 m. ga o'sgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa, 51,8 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 49,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,8 % ga kasentabrgan va ishlab chiqarish hajmi 410,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,1 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 1073,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 72,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 27,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 103,8 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1955,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 112,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 %, fizik hajm indeksi 67,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 196,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 144,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 72,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,6 % ni, fizik hajm indeksi 98,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 404,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 207,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 111,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 31,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 413,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,7 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 148,6 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	149,7	215,7	66,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	25,5	26,3	0,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	4,1	3,5	-0,6
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	17,6	22,4	4,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 44,5 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,5 mlrd. so'm shuningdek, 22,4 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1888,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 35,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-sentabr

45,4 %

2022- yil
yanvar-sentabr

46,2 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-sentabr

54,6 %

2022- yil
yanvar-sentabr





53,8 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 1,0 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 15,7 % ni, 14,2 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib Termiz sh. 17,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (115,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Jarqo'rg'on (137,4 %) Sherobod (122,3 %) va Termiz (119,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shaxrida 17,1 % ni, Jarqo'rg'on tumani 15,3 % ni, Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib 14,6 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 16,7 % ni, shuningdek, Denov tumani 11,1 % ni, Sho'rchi tumani 10,4 % ni, Termiz shahri esa 18,8 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati

2020- yil

3414,3 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-sentabr

2021- yil



4722,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-sentabr

2022- yil


5329,9 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (5221,0 so'm), Jarqo'rg'on (3881,0 ming so'm), Termiz (3481,1 ming so'm) hamda Sho'rchi (2517,2 so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1926,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Surxondaryo viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 682,7 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 1677,0 ming so'mni, Termiz tumanida – 1476,0 ming so'mni, Jarqo'rg'on tumanida – 1261,9 ming so'mni va Sho'rchi tumanida – 1250,8 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2191,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,1 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

1431,8 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-sentabr

2021- yil

1688,7 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-sentabr

2022- yil

2191,7 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-sentabr



2020- yil

41,9 %

2020- yil yanvar-sentabr

2021- yil

40,4 %

2021- yil yanvar-sentabr


2022- yil

41,1 %

2022- yil yanvar-sentabr

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 779 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 831 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,4 % i) Termiz shahriga, 542 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 383 tasi (8,0 %) Sho'rchi tumaniga, 317 tasi (6,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga va 294 tasi (6,2 %) Termiz tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘shish sur‘atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 19 ta loyiha bo‘yicha 96,3 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 50 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	31	19
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	24	19
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m</i>	55,5	96,3
<i>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	-	-
<i>Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlikda</i>	98	50